



SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI RIVOJLANISHNING NAZARIY JIHATLARI

Ismailova Nilufar Sabitdjanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

email: nilufar.ismailova@tsue.uz

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 8 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a14	Ushbu ilmiy maqoladi respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarida innovatsiya va intellektual ulushni oshirish borasida qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz zarur. Jumladan, mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning va davlat boshqaruvi; iqtisodiyot ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g'oyalar; ishlanmalar va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish; yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish; yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarishning yangi uslubini joriy etish; sanoatning mazkur tarmog' i taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o'zlashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.
KEYWORDS	<i>Innovatsiya faoliyat, innovatsion salohiyat, innovatsion muhit, innovatsion g'oya, innovatsion mahsulot, innovatsion jarayon, boshqaruv mexanizmi, boshqaruv usullari, boshqaruv tizimi.</i>

Kirish (Introduction/Введение).

Jahon andozasi barcha sohalarida sifatli rivojlanishni ta'minlovchi yangiliklarni uzluksiz tarzda amaliyotga sinab borish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning xarakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko'rsatmokda. Zamonaviy rivojlanishning innovatsion modellari va «aqli» texnologiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqarordir. Bunday mamlakatlarning rivojlangan taraqqiyoti, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan emas, balki innovatsion g'oyalar va ishlanmalarga asosida gavdalanadi.

Jahonda globallashtirish jarayonining chuqurlashuvi va ilmni ko'p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustuvor rivojlanishi xar kandy mamlakatning iqtisodiy o'sishi va turmush sifati oshirishining zaruriy sharti innovatsion faollik bilan belgilanadi. Innovatsion faollik, o'z navbatida, davlatning iqtisodiy va ilmiy-texnik imkoniyatlari, uning innovatsiyaga oid siyosati va salohiyati, shuningdek, jamiyatning ma'naviy holatiga bog'lik.

Hozirgi kunda ilmiy-texnik, shuningdek, taraqqiyot hamda bozor ehtiyojlari, sanoat tarmoqlarida mahsulotlar nomenklaturasining sifatiga ehtiyojlarni shakllantirgan holda, talab va taklif kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga olib keldi. Shuning uchun, ishlab chiqarishning barcha jabhalarida innovatsiyalarga, istiqbolli rivojlanish amaliyoti sifatida, qiziqish oshagani yaqqol namoyondir. Korxonalarini boshqarish jarayonida bunday strategiyani yuzaga kelishi, innovatsion jarayonlarni samarali boshqaruv tizimlarini yaratish kerakligini ma'lum qiladi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitlarida, innovatsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida turli xil resurslarni optimallashtirish, innovatsion jarayonlarni majmuaviy boshqarish va innovatsion rivojlanishning samarasiz variantini tanlash tavakkalchiligini pasaytirish uchun xaridorlarning o'zgaruvchan innovatsion ehtiyojlari hisobga olish lozim bo'ladi. Bunda innovatsiyalar va ularni boshqarish korxona rivojlanishining asosi va uzoq muddatli muvaffaqiyatining kafolati hisoblanadi.

Innovatsion menejmentning asosiy qoida va kategoriyalarini o'rganish uchun «innovatsiya» tushunchasining iqtisodiy mazmuni hamda mohiyatini anglab yetishimiz kerak. Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiya (ingl. innovation) – potensial ilmiy-texnik taraqqiyotni (ITT) yangi mahsulot va texnologiyalar ko'rinishida real taraqqiyotga aylanishi, deb ta'riflanadi.

Globalizatsiya sharoitida zamon talablaridan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni tizimli ishlab chiqish uslubiyoti xalqaro standartlarga asosida va ularga muvofiq innovatsiya deganda, bozorga kirib kelayotgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda mavjud qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga asosidagi yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovatsiya faoliyati natijasi tushuniladi.

Innovatsiyani jarayon sifatida, tizim sifatida, o'zgarishlar yoki natijalar sifatida talqin qilingan. Bundan tashqari innovatsiya tushunchasini tushuntirishda tadqiqot ob'ektlari va predmetlarini ham turlicha nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Innovatsiya tushunchasiga bu kabi ko'plab tariflar berilishiga sabab va uni turli ko'rinish sifatida bilish har bir tadqiqotchi olimning o'zi yashagan davriga va shu davrdagi iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili (Literature review/Литературный обзор).

Innovatsion nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V.Zombart, V.Mitcherlix, Y.Shumpeter ishlariga to'g'ri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y.Shumpeter katta hissa qo'shgan. Y.Shumpeter kon'yunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarish va bozor rivojlanishidagi o'zgarishlarning yangi omillarini ajratdi va ularga quyidagilarni kiritdi[1]: yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish; yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarishning yangi uslubini joriy etish; sanoatning mazkur tarmog' i taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o'zlashtirish; xom-ashyo yangi manbasidan foydalanish.

A.Utkin esa bozor sharoitida korxonalar muvaffaqiyatli iqtisodiy faoliyati uchun innovatsiyalar muhimligini ta'kidlagan holda, innovatsiyalarni korxona iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy xaziralardan biri sifatida tavsiflagan.[2]

Bugungi kunda yangiliklarni joriy etish kundalik odatiy jarayonga aylanmoqda. Shu bilan birga yangiliklarni joriy etish muammosi keng qo'yilmoqda: bu nafaqat yangi texnika yoki texnologiya, balki joriy etilayotgan barcha yangiliklar, shu jumladan, iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruvga oid yangiliklardan iborat.[3]

G.J. Xasanovning fikricha, "Innovatsiya faoliyati" – bu faoliyat turi ham, sohasi ham bo'lmay, balki uning tavsifidir. Innovatsiya sohasi mavjud bo'lmaydi, chunki har qanday faoliyat va har qanday soha, agar unga yuqori talab mavjudligi bilan ajralib turuvchi natijaga (masalan, ijtimoiy, bozor, mudofaa kabi) erishishi uchun yangiliklar (masalan, bilimlar, texnologiyalar, qo'llanmalar, yondashuvlar kabilari) joriy etilsa, innovatsiya bo'lishi mumkin".[4]

Jahon iqtisodiy adabiyotida "innovatsiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi.[5]

V.M.Palterovich texnologik yangiliklarni boshqa mamlakatlarda kiritilgan yangiliklarni takrorlovchi imitatsiya (o'xshatish) va dunyoda ilk bora amalga oshirilayotgan innovatsiyalarga ajratishni taklif qiladi.[6]

Y. Shumpeterning ta'kidlashicha, «depressiya davrida yuz beradigan jarayonlar ishonchsizlik va tartibsizliklarni ifoda etadi, bularni biz yangi muvozanatni izlash, umumiy vaziyatlarning nisbatan jadal va jiddiy o'zgarishlariga moslashuv sifatida tushunamiz».[7]

Milliy darajadagi raqobatbardoshlik, M. Porterning ta'kidlashicha, bu mehnat unumdorligini muntazam ixtirolar yaratish jarayonlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali raqobatчилarga nisbatan doimiy ravishda yuqori saqlab turishdir.[8]

Jahon xo'jaligida mukammallashish jarayoni uchun asosning yuzaga kelishini K. Frimenning «texnoiqtsodiy paradigmalar» nazariyasi orqali tushuntirish mumkin. K. Frimen nazariyasiga muvofiq Kondratev-Shumpeterning har bir siklida jahon iqtisodiyotidagi tarmoqlardan birining ustuvor o'rini belgilab beruvchi bitta «texnoiqtsodiy paradigma» hukmronlik qiladi.[9] Mazkur paradigma jahon xo'jaligining yetakchi mamlakatlari ega bo'lgan eng yaxshi amaliy bilimlar tizimini o'z ichiga oladi.

Sanoat korxonalari bozorga moslashgan holda o'zining investitsion resurslarini istiqbolli tovarlar va texnologiyalarga yo'naltiradi. Sanoat korxonalarining bunday xususiyatlari imitatsion innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.[10]

Rossiya olimlari innovatsiyalarni o'rganishda rossiyalik olim N.D.Kondratevning «katta sikllar» yoki «uzun tebranishlar» nazariyasini asos qilib olgan. Bu nazariya mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ilmiy-texnik, innovatsion rivojlanish bilan bog'liqligini ifodalaydi.

Birinci texnologik ukld (TU) bu 1970-1830 yillarni o'z ichiga oladi. Bu ukldada tekstil sanoati, mashinasozlik, chugun ishlab chiqarish, suv dvigatelini kashf etilishi bo'lgan. Rivojlanishni harakatga keltiruvchi omil chugun ishlab chiqarish va suv dvigatelining kashf qilinishi. Birinci TU ni rivojlanishi Angliya hisoblanadi.

Ikkinchi TU, 1830-1880 yillar. Bug' dvigatelini kashf etilishi, temir yo'l qurilishi, transport, mashina-paraxodlarni qurish, ko'mir, stanokqurishni, instrumental sanoatni va qora metallurgiya sanoatining rivojlanishi. Harakatga keltiruvchi omil: bug' dvigateli, stanoklar, asosan, AQSh va Fransiya davlatlarida yetakchi bo'lgan.

Uchinchi TU, 1880-1930 yillar. Elektrotexnik, og'ir mashinasozlik, po'lat eritish va quyish, elektr uzatgich liniyalarining rivojlanishi va noorganik ximiyaning rivojlanishi. Harakatga keltiruvchi omil: elektrodvigatel, po'lat ishlab chiqarish. Yetakchi davlat: AQSh.

To'rtinchi TU, 1930-1980 yillar. Avtomobil va traktor ishlab chiqarilishi, sintetik materiallar, organik ximiyaning rivojlanishi, neft ishlab chiqarish va uni qayta ishlash. Harakatga keltiruvchi omil: ichki yonish dvigateli, nefteximiyasi. Yetakchi davlatlar: AQSh, SSSR.

Beshinchi TU, 1980-2000 yillar. Elektron sanoati, hisoblash texnikasi, optika-volokon texnikasi, telekommunikatsiya, robot texnikasi, gaz ishlab chiqarish va uni qayta ishlash va axborot xizmatining rivojlanishi. Harakatga keltiruvchi omil: mikroelektronika komponentlari. Yetakchi davlatlar: AQSh, Yaponiya.

Oltinchi TU, 2000 yildan keyingi yillar. Robototexnika, molekulyar biologiya va gen injeneriyasi yutuqlari asosida biotexnologiya, nanotexnologiya, sun'iy intellekt tizimi, global axborot tarmoqlari,

integrallashgan yuqori tezlikdagi transport tizimlarining rivojlanishi. Harakatga keltiruvchi omil: robototexnika, nanotexnologiya. Yetakchi davlatlar: AQSh, Yaponiya.

O'zbekiston iqtisodiyoti va sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishining to'rtinchi va beshinchi texnologik ukldaga kiritish mumkin. Mashinasozlik sanoatining rivojlanishi sanoatda kooperatsiyaning rivojlanishi, bu sohada kichik biznesning rivojlanishiga olib keladi. Elektron va ximiya sanoatini rivojlanishi boshqa barcha tarmoqlarni innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Respublikamizda ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissaning yuqori ulushi bo'lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, jumladan, qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz zarur. Kelajakda olib boriladigan islohotlarda O'zbekistonni rivojlanishning innovatsion modeliga to'lik o'tkazmasdan turib erishib bo'lmaydi, mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning va davlat boshqaruvi, iqtisodiyot ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalga joriy qilishni rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish kerakligini talab etadi.

Bizning fikrimizcha, innovatsiyalarning ikki asosiy nuqtai nazardan iborat bo'lgan tasnifi kuyidagilardan iborat:

1. Aniqlash belgisiga ko'ra, iste'mol qiluvchi sub'ekt tavsifini taklif etamiz. Agar innovatsiyalar korxonalarda (tashkilotlar, davlat tashkilotlari, firmalar va b.) foydalanilsa, u xolda ular texnologik innovatsiyalar hisoblanadi. Agar iste'mol qiluvchi sub'ekt alohida individ bo'lsa, u holda maqsadga muvofiq ravishda iste'mol innovatsiyalari to'g'risida gapirish mumkin. Bunday tasniflashning shartli ekanligi ko'p miqdordagi yangiliklar bilan ifodalanadi va ularni bir vaqtning o'zida xam texnologik, ham iste'mol innovatsiyalariga kiritish mumkin.

2. Innovatsiyalar texnik va tashkiliy turlarga bo'linadi. Keyingilariga ijtimoiy tarkib tizimining o'zgarishini kiritish mumkin. Odatda texnik innovatsiyalar asosida yangi mahsulot, texnologiya yoki xizmatlar nazarda tutiladi. Ba'zida muvaffaqiyatli innovatsiyalar bir vaktning o'zida maxsulotlar, jarayonlar va xizmatlardagi o'zgarishlar samarasining yeg'indisiga asoslanadi. Birok kupchilik kompaniyalar tashkiliy jixatlarga ega bo'lgan xamda unga sarflangan mablag'larni tezda oqlaydigan innovatsiyalar kurinishida realizatsiya kilinadi. Masalan, ishlab chikarishni tashkil etish soxasidagi innovatsiyalar marketing va sotishning yangi usullarini xam uz ichiga oladi. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy innovatsiyalarning axamiyati muntazam ravishda usib bormokda. Bozor segmenti, chegaralari va rakobat bazasi uzgarishi natijasida strategik va tarkibiy tavsifdagi innovatsiyalarning axamiyati oshmokda. Texnik innovatsiyalar nafakat asosiy kurinishlari (yangi maxsulot, yangi jarayon, yangi xizmat) buyicha tasniflanishi, balki ularning fan sig'imi yoki kapital sarflar va ularni koplash muddatlariga karab xam guruxlarga ajratilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya ko'rinishlari xamda ularni joriy etish boskichlari va natijalarini realizatsiya kilish doirasida kursatilgan faoliyat kurinishlari bilan innovatsiyalarni amalga oshirishning muxim tavsifi ishlab chikildi. Innovatsion jarayonlar turli bosqichlar (imiy, texnik, texnologik, ekspluatatsion)da amalga oshirilishi mumkin. Barcha kurinishdagi innovatsiyalar (fundamental tadqiqotlar boskichidan tashkari) ixtiro sifatida tijorat maksadida foydalaniladi.

Boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chikish uchun zarur bo'lgan innovatsion jarayonlarning uziga xos xususiyatlari mazkur jarayonlarni tashkil etuvchi innovatsiya turi ustun xisoblanadi. Innovatsiyalarni taxlil kilishning muhim bosqichi bo'lib, bir qator asosiy belgilari buyicha tasnifi xisoblanadi. Muallif tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida innovatsiyalarning xususiyatlarini tavsiflovchi va turli xildagi innovatsiyalarning xususiyatlari va farqli jihatlarini ifodalovchi muayyan belgilari buyicha tasnifi ishlab chikildi (1-jadval).

Innovatsiyalarni yaratish va tarqatish jarayoni innovatsion jarayon sifatida qaraladi. Uni soddalashtirilgan holda innovatsion janjir, ya'ni bir-biri bilan bog'liq bosqichlar shaklida ifodalash mumkin.

Innovatsion jarayonning birinchi bosqichida fundamental, amaliy ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bazasida yangi

g'oyalar shakllanadi. Ikkinchi bosqichda yangiliklar yaratiladi, bu yerda innovatsion mahsulotning tajriba nusxasi yaratiladi, u sinov eksperimentidan o'tkaziladi, innovatsion mahsulot loyihasi ishlab chiqiladi, yangi mahsulot o'zlashtiriladi va seriyali ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Innovatsion jarayonning uchinchi bosqichida innovatsion mahsulot tarqatiladi. Innovatsiyani tarqatishda marketing xizmati muhim rol o'ynaydi.

Tadbirkorlar innovatsion jarayon bosqichlarining har birida mustaqil faoliyat yuritishi mumkin, chunki bozor sharoitida yangi bilimlar, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, innovatsion tovarlar va xizmatlar tovar hisoblanadi va ular bozorga chiqarilishi mumkin.

Bugungi kunda korxonalar rivojlanishi va raqobatbardoshligi faqat yangi bilim, ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan belgilanmaydi, balki innovatsiyalardan unumli foydalanishi bilan ham belgilanadi.

Innovatsion faoliyat o'ziga xos ishlab chiqaruvchi kuch bo'lib, fan-texnika, moddiy ishlab chiqarish va biznesning integratsiyalashuviga olib keladi.

Innovatsion faoliyatning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: fundamental va amaliy tadqiqotlar; ilmiy izlanish va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (IITKI); patentlik faoliyati, litsenziyalash, nou-xau; innovatsion mahsulotni sertifikatlash va standartlashtirish; innovatsion faoliyatni investitsiyalash, investitsiyani jalb qilish; yangi g'oya va yechimlarni qidirish, innovatsion loyihalarni joriy qilish va moliyalashtirish bo'yicha sheriklarni topish; marketing va innovatsion mahsulotni sotish bozorlarini aniqlash, yangi iste'molchilarni izlash; innovatsion faoliyat uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Xalqaro tajribada innovatsiyalar klassifikatsiyasi innovatsion faoliyatning uch turdagi natijalariga ko'ra klassifikatsiyalanadi: bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashgan mahsulot; amaliyotda foydalaniladigan modernizatsiyalashgan va takomillashgan texnologik jarayon. Bulardan tashqari yangi ijtimoiy xizmatlar ham innovatsion mahsulot sifatida qaratiladi.

Innovatsiyalar tarmoq bo'yicha ham turlarga bo'linadi.

Korxonalarda innovatsiyalarni quyidagilarga ajratish mumkin: korxonaning kirish qismidagi innovatsiyalar – xomashyo, materiallar, mashina va uskuna, axborot; korxonaning chiqish qismidagi innovatsiyalar – mahsulot, xizmat, texnologiya, axborot mahsulotidagi o'zgarishlar va hokazo o'zgarishlar; korxonaning tarkibiga tegishli innovatsiyalar – boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish tizimi, texnologik tizimlardagi o'zgarishlar.

Innovatsiyalar quyidagi tanlov mezonlariga javob berishi kerak: yangiligi, amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lishi, uni ishlab chiqarish mumkinligi, bozorga chiqarib sotish mumkinligi, innovatsion faoliyat samaradorligi talablariga javob berishi. Korxona o'zining innovatsion faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha resurslar uning innovatsion salohiyatini bildiradi. Bu yerda korxonaning nafaqat ichki resurslari, balki uning tashqi resurslardan foydalanish imkonini ham e'tiborga olish lozim. Eng muhimi, resurslardan to'liq va samarali foydalanishdan tashqari ularni yangilash, modernizatsiyalash va takomillashtirib borish ham korxona raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xayotiylik davrining tarmok tuzilishiga kura innovatsiyalar iste'mol qilish soxasi, tadbik qilish soxasi, vujudga kelish soxasi jarayoniga karab bulinadi. Uzgarishlar darajasiga kura innovatsiyalar tasnifi kump xollarda yuqorida kurib chikilgan sabablarni uz ichiga oladi. Ammo shunga karamasdan, u kurib chikilayotgan tarmokda mavjud bo'lib, ketma-ket past darajadagi innovatsiyalardan yuqori innovatsiyalarga utish jarayonini kuzatishga imkon beradi va rivojlanishi buyicha boshka belgilarga kura tasniflanadi.

Nol tartibdagi innovatsiyalar - tarmokning birlamchi xossalarni kayta tiklash bulib, uning mavjud funksiyalarini saklab kolish va yangilashdir. Birinchi tartibdagi innovatsiyalar - tarmokning mikdor xossalarni uzgartirish xisoblanadi. Ikkinchi tartibdagi innovatsiya - tarmok faoliyatini yaxshilash maksadida tarmok tarkibiy kismini kaytadan guruxlashni uz ichiga oladi. Uchinchi tartibdagi innovatsiyalar - bir-biriga moslashtirish maksadida ishlab chikarish tarmogi elementlarini uzgartirish jarayonidir. To'rtinchi tartibdagi innovatsiyalar - yangi variant bo'lib, oddiy moslashish doirasidan tashkari chikuvchi sifatida o'zgarishlaridir, bunda tarmokning birlamchi belgilari uzgarmaydi - ularning ba'zi foydali xossalari o'zgarishi mumkin. Beshinchi tartibdagi

innovatsiyalar - yangi avlod bo'lib, tarmoqning barcha yoki ko'p xossalari o'zgarishini bildiradi. Bunda asosiy tarkibiy konsepsiya o'zgarmaydi. Oltinchi tartibdagi innovatsiyalar - yangi ko'rinish bo'lib, tizimni dastlabki xususiyatlarining sifat o'zgarishidir, uning konsepsiyasi funksional tamoyillarning o'zgarmasligidir. Yettinchi tartibdagi innovatsiyalar - yangi tur bo'lib, tizimning funksional xossalarni yuqori o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini umumiy holda baholash uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

$$IBHS_{koef} = \frac{\sum IBSK}{1000} * 100\%$$

Bu yerda:

$IBHS_{koef}$ – sanoat korxonasining innovatsion boshqaruvi holati va uning samaradorligi koeffitsienti

$\sum IBSK$ – sanoat korxonasining innovatsion boshqaruv holati va samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha qayd etgan natijalarining yig'indisi.

Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashda yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, kadrlarni o'qitish va kvalifikatsiyasini oshirish xarajatlari hamda progressiv texnikalarning o'rtacha yillik qiymat omillarini hisobga olgan holda aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi [11].

Sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini baholashda reyting usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuning uchun reyting usulini korxona, tarmoq va sohalar kesimida yoki hududlarning innovatsion salohiyatini baholashda foydalanish mumkin. Bunday reytingli baholash usulini amaliyotga joriy etish natijasida korxonalar faoliyatini rivojlantirish, raqobatbardoshlik darajasini oshirish borasida yangi imkoniyatlarni izlab topishdan iborat bo'ladi.

Milliy reyting mezonlariga bo'yicha sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni baholash ko'rsatkichlarini bir necha bosqichga bo'linadi:

1. Sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatni belgilovchi boshlang'ich ma'lumotlar k_{ij} ko'rinishidagi matritsa orqali jadval tuziladi, ustun ko'rsatkichlari ($i=1,2,3,...n$) va qatorida korxonalar nomi ($j=1,2,3,...m$) yoziladi.

2. Har bir ko'rsatkich bo'yicha maksimal miqdor topilib, etalon sifatida alohida belgilab qo'yiladi.

k_{ij} ko'rinishdagi matritsa orqali boshlang'ich ma'lumotlar etalon ko'rsatkichiga nisbatan ifodalanadi:

3. Har bir j- sanoat korxonaning reyting bahosi quyidagicha baholanadi:

$$R_j = \sum_{j=1}^n \sqrt{(1-x_{nj})^2} \quad x_{ij} = \frac{k_{ij}}{\max k_{ij}}$$

4. R_j ko'rsatkichi eng kichik bo'lgan sanoat korxonasining reyting bahosi eng baland bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda unga miqdoriy baho berish orqali sanoat korxonasini innovatsion mahsulot ishlab chiqarish xajmiga oid omillarni o'zaro bog'liqligini aniqlovchi uch omilli regressiya funksiyasi tuzildi:

$$Y = f(YATOX, KOKOX, KPTOYQ)$$

Bu uch omilli funksiyaga ta'sir etuvchi omillarni o'rgangan holda sanoat korxonasini innovatsion mahsulot ishlab chiqarish xajmi modeli quyidagicha ko'rinishga ega:

$$LN(Y) = \beta_0 + \beta_1 * LN(YATOX) + \beta_2 * LN(KOKOX) + \beta_3 * LN(KPTOYQ)$$

Bu yerda:

Y– sanoat korxonasini innovatsion mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

YATOX– yangi texnologiyalarni o'zlashtirish harajatlari;

KOKOX–kadrlarni o'qitish va kvalifikatsiyasini oshirish xarajalari;

KPTOYQ–korxonadagi progressiv texnikalarning o'rtacha yillik qiymati;

$\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3$ – regression koeffitsientlar; μ – o'rtacha xatolik darajasi.

Modelda sanoat korxonasini innovatsion mahsulot ishlab chiqarish xajmiga ta'sir etadigan harajatlari olingan, ammo sanoat korxonalarining innovatsion boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar kiritilmagan. Bizning fikrimizcha, fundamental va texnologik innovatsiyalar bir-biriga o'xshash hamda mahsulot innovatsiyalarining darajasini berish xususiyatiga ega []. Hulusa qilib aytganda, muvofik

resurslar va daromadlilik imkoniyatlari bilan birgalikda pogonaning pastrok qismida innovatsiyalarni olish imkoniyatlari, yutuklari hamda bilimlarini keyingi boskichga o'zgartirish vujudga keladi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Zaklyucheniya).

Innovatsiyalarni realizatsiya qilish jarayonining muxim tavsifi buyicha tasnifini aniqlash asosida kuyidagi xulosalarga kelish maqsadga muvofiqdir:

- korxonalar faoliyatining u yoki bu kurinishdagi strategiyasiga innovatsiya turlarini bog'liqligini amalga oshirish. Boshkacha aytganda, innovatsiya strategiyasining xar kanday darajasi innovatsiyalar turiga bog'liqdir;

- innovatsiya turlariga bog'lik holda boshqaruvning tashkiliy shakllarini tanlash asosida va iqtisodiy mexanizmini aniqlash;

- innovatsiyalarning farqli jihatlariga bog'liq xolda ularning turli xil kurinishlarini bozordagi segmenti darajasini aniklash.

Zamonaviy sanoat korxonalari tizimning barcha tavsifiga mo'ljallangan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ilmiy- texnik tizimni o'zida namoyon etadi: kirish, chiqish, jarayon, maqsad, teskari aloqa va boshqalar. Sanoat korxonalari ta'minotchilardan resurslar (yokilg'i, energiya, jihozlar, materiallar, komplektlovchi buyumlar) ni oladi, ishlab chiqarish jarayonida jamoaning mexnat faoliyati natijasida amalga oshiradi, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradi va iste'molchilarga ularni jo'natadi. Ta'minotchilari va iste'molchilaridan tashqari korxonaga munosabat bo'yicha tashki muhit omili sifatida yuqori tashkilotlar hamda ta'minotchilar va iste'molchilar bilan barcha moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklar xisoblandi.

Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarda innovatsion faoliyatni

boshqarishning asosiy yunalishlarini takomillashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- zamonaviy sanoat tarmoqlari korxonalari faoliyatining asosiy yo'nalishlari doirasida tadqiqotlarni o'tkazishga konsentratsiyalash;

- texnologik yo'l xaritalarini ishlab chiqish orqali innovatsion faoliyat doirasida kichik va o'rta korxonalarni ham jalb qilish;

- sanoat tarmog'ining fan sig'imi yuqori bo'lgan korxonalari innovatsion faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish maksadida innovatsion faoliyat natijalarini harid kilish va sotish; sanoat tarmog'ining fan sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarda innovatsion faoliyatining moliyaviy samaradorligini oshirish vositalarini qo'llash;

- sanoat tarmog'ining fan sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarda innovatsion faoliyatini joriy etish doirasida resurslardan foydalanishni optimallashtirish vositalarini qo'llash;

- innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar yoki korxonalar tomonidan aniklanadigan mezonlardan kelib chiqib, foydali bo'lgan innovatsion loyihalarga resurslarni yo'naltirish.

Ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatish yunalishlari, xayotiylik davrining tarmoq tuzilishi, o'zgarishlar darajasi, innovatsion faoliyatni amalga oshirish manbai, ishlab chiqarish jarayonidagi roli, extiyojlarni kondirish tavsifi, yangilik darajasi, bozorga chiqish vaqti, vujudga kelish sabablari, predmeti va ko'lamiga ko'ra innovatsiyalarni tasniflash belgilari katta ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития, М.: Прогресс, 2002. – С.255.
2. Уткин Э.А., Морозова Г.И., Морозова Н.И. Инновационный менеджмент. – М.: АКАЛИС, 1996. –С.192.
3. Латыпова М.М. Управление инновациями на горных предприятиях // Горный информационно-аналитический бюллетень. № 3/2007. - <http://www.gornaya-kniga.ru/periodic/914>.
4. Хасанова Г.Ж. Саноат корхоналари инновация фаолияти самарадорлигини ошириш. Ихтисослик: 08.00.04 – “Микроиқтисодиёт”. – И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Бухоро давлат университети. – Тошкент, 2006. – Б.11-12.
5. Ковалёв Г.Д. Основы инновационного менеджмента. –М.: 1999. –С. 192.
6. Акабиров Д.Н. Инновацион стратегия. Ўқув қўлланма.-Т.: ТДИУ, 2007. –Б. 32.
7. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982.
8. Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993. – С. 5.
9. Длинные волны НТП и социально-экономическое развитие. – Новосибирск, 1991. – С. 224.
10. Ян Дуньдонь, Ян Шиэоцин. Рациональное мышление имитационной инноваций в Китае. Технологическое развитие предприятия. 2011. № 12.
11. Dadabayev, U. (2024). JAHON MOLIVAVIY XIZMATLAR BOZORIDA TAKOFULNING RIVOJLANISHI VA JORIY HOLATI. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 35-37.
12. Abduvaliev A., Isadjanov A., Dadabaev U., Muhammad E.B. Neutrosophic Framework for Analyzing Factors of innovation in the Development of Uzbekistan: features and modern tendencies. International Journal of Neutrosophic Science (IJNS) Vol. 21, No. 03, PP. 34-46, 2023. doi: 10.54216/IJNS.210303